## 2023- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

**YAHM hajmi,** ***mlrd. so'm***

**20 100,3**

**YAHM o'sish sur'ati**

**105,5 %**

**YAHM deflyator indeksi**

**110,9 %**




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 20 100,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyuni bilan taqqosla-ganda 5,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-iyunidagi narxlariga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,3 % ga yetdi.

## 2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2022- yil*** | ***2023- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **17 182,4** | **20 100,3** | **105,5** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 16 622,2 | 19 656,6 | 105,3 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 560,2 | 443,7 | 110,6 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **16 622,2** | **19 656,6** | **105,3** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **5 562,5** | **6 451,2** | **105,4** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **3 881,1** | **4 533,7** | **105,7** |
| sanoat | 2 609,6 | 3 134,1 | 107,1 |
| qurilish | 1 271,5 | 1 399,6 | 103,0 |
| **xizmatlar** | **7 178,6** | **8 671,7** | **105,1** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 371,0 | 1 652,5 | 107,1 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 954,6 | 1 196,9 | 112,5 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 4 853,0 | 5 822,3 | 103,1 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 671,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga yuqoridir.

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*




**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**

*(ming so‘mda)*








## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

| | *2022- yil* | *2023- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 96,7 | 97,8 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,3 | 2,2 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **33,5** | **32,8** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **23,3** | **23,0** |
| sanoat | 15,7 | 15,9 |
| qurilish | 7,6 | 7,1 |
| **xizmatlar** | **43,2** | **44,2** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 8,2 | 8,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,7 | 6,1 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 29,3 | 29,7 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

**2022- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi* **33,5%** | *Sanoat* **15,7%** |
| *Qurilish* **7,6%** | *Xizmatlar* **43,2%** |

**2023- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi* **32,8%** | *Sanoat* **15,9%** |
| *Qurilish* **7,1%** | *Xizmatlar* **44,2%** |

***Yalpi qo‘shilgan qiymat***

***Mahsulotlarga sof soliqlar***

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 32,8 % ni, sanoat tarmog‘i 15,9% ni, qurilish 7,1 % ni va xizmatlar sohasi 44,2 % ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,2 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,2 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari**

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

**YAHM**

5,7

5,5

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi**

3,3

5,4

**Sanoat**

8,1

7,1

**Qurilish**

10,3

3,0

**Xizmatlar**

5,4

5,1

2022- yil

2023- yil

2023- yilning yanvar-iyunida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 105,4% (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 32,8 %), sanoatda – 107,1 % (15,9 %), qurilishda – 103,0 % (7,1 %), xizmatlar sohasida 105,1 % (44,2 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 107,1 % (8,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,5 % (6,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % (29,7 %) dan iborat bo‘ldi.



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*










2023- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda– 112,2 % va xizmatlar sohasida – 114,9 % qayd etildi.









# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**

| | **Hajmi,** *mlrd.so‘m* | **Ulushi,** *% da* |
|---|---|---|
| **2022- yil** | **11 730,4** | **70,6** |
| **2023- yil** | **13 700,3** | **69,7** |



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 13 700,3 mlrd.so‘m (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 11 730,4 mlrd.so‘m)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 69,7 % (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 70,6 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % pasayishi yirik korxo-nalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

